



3. Berardo, S. A. (2006). *The use of authentic materials in the teaching of reading*. The Reading Matrix, 6(2), 60–69.
4. Ciornei, S. I., & Dina, T. A. (2014). *Authentic texts in teaching English*. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 116, 274–278. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.01.205>
5. Foppoli, J. (2006). *Using authentic materials in class*. Retrieved from <https://www.englishclub.com>
6. Genhard, J. G. (1996). *Teaching English as a foreign/second language*. Heinle & Heinle Publishers. (As cited in Al-Azri & Al-Rashdi, 2014)
7. Hussein, R. (2013). *Authentic materials for teaching English: A review of sources and instructional implications*. Journal of Education and Practice, 4(20), 70–77.
8. Kilickaya, F. (2004). *Authentic materials and cultural content in EFL classrooms*. The Internet TESL Journal, 10(7). <http://iteslj.org/Techniques/Kilickaya-AuthenticMaterial.html>
9. Kozhevnikova, E. (2013). *Developing students’ creativity through task-based learning*. Procedia - Social and Behavioral Sciences, 93, 1482–1485. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2013.10.058>
10. Lanaro, S. (2007). *Authentic materials: An overview*. Retrieved from <http://www.cal.org/resources/digest/authentic.html>
11. Nunan, D. (1999). *Second language teaching and learning*. Heinle & Heinle. (As cited in Oura, 2012)
12. Omid, A., & Azam, A. (2016). *The role of authentic materials in teaching vocabulary in ESL classrooms*. International Journal of Research Studies in Language Learning, 5(2), 1–10.
13. Oura, G. K. (2012). *Authentic materials in the classroom: Bringing the real world to ESL students*. Journal of English Language Teaching and Learning, 4(2), 54–61.
14. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIMNING MUSIQA TA’LIMDAGI O’RNI VA AHAMIYATI. *TA’LIM VA TARAQQIYOT*, 4(3), 607-613.
15. Botirova Sevara Mamurovna, Tursunov Ramziddin Abdixalil o’g’li. (2025). MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O’ZBEKISTON BUNYODKORI. *MA’NAVIY BARKAMOL YOSHLAR YANGI O’ZBEKISTON BUNYODKORI*, 1(1), 98-102.

**XORIJIY VA MAHALLIY TAJRIBADA MUSTAQIL O’RGANISHNI TASHKIL ETISHDA
DASTURIY-METODIK TA’MINOTDAN FOYDALANISH VA TALABALARNING MUSTAQIL
ISHLASH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi
Namangan Davlat Universiteti doktoranti
Tel.: +998 97 250 70 90
E-mail: gavharoysoliyeva8@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda xorijiy va mahalliy tajriba asosida talabalarning mustaqil o’rganish va ishlash kompetensiyasini rivojlantirishda dasturiy-metodik ta’minotdan foydalanish metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Mustaqil o’rganish, mustaqil ishlash kompetensiyasi, dasturiy-metodik ta’minot, ta’limni axborotlashtirish.

**ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРИ
ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ИЗУЧЕНИЯ ЗАРУБЕЖНОГО И МЕСТНОГО
ОПЫТА И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИЧЕСКИХ СРЕДСТВ РАЗВИТИЯ
КОМПЕТЕНЦИЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ СТУДЕНТОВ**

Солиева Гавхарой Ёдгоржон кызы
Докторант Наманганского государственного университета
Тел.: +998 97 250 70 90
Эл. почта: gavharoysoliyeva8@gmail.com



Аннотация: В диссертационной работе рассматриваются вопросы совершенствования методики использования программно-методического обеспечения для формирования у студентов компетенций самостоятельной учебной и производственной деятельности на основе зарубежного и отечественного опыта.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, компетенции самостоятельной учебной деятельности, программно-методическое обеспечение, информатизация образования.

**USE OF SOFTWARE AND METHODOLOGICAL SUPPORT IN ORGANIZING
INDEPENDENT LEARNING IN FOREIGN AND LOCAL EXPERIENCE AND IMPROVING
METHODOLOGIES FOR DEVELOPING STUDENTS' INDEPENDENT WORK
COMPETENCE**

Soliyeva Gavharoy Yodgorjon qizi

PhD student of Namangan State University

Tel.: +998 97 250 70 90

E-mail: gavharoysoliyeva8@gmail.com

Abstract: This thesis discusses the issues of improving the methodology for using software and methodological support in developing students' independent learning and work competencies based on foreign and local experience.

Keywords: Independent learning, independent work competencies, software and methodological support, informatization of education.

Mamlakatimizda ham “Talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik ko’nikmalarini shakllantirish, o’quv jarayoniga kompetensiyalarni kuchaytirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, o’quv jarayonida amaliy ko’nikmalarni shakllantirishga yo’naltirish, bu borada o’quv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilg’or pedagogic texnologiyalar, o’quv dasturlari va o’quv uslubiy materiallarni keng joriy etish” [1] oliy ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari va ustuvor yo’nalishlari sifatida qaralmoqda.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev “Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida raqobat qanday keskin tus olib borayotganini hammamiz ko’rib turibmiz. Bu shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm – fan, yuqori texnologiyalar va innovatsion yutuqlarni joriy etish orqali munosib javob bera olamiz”, [2] deb ta’kidlaydi.

Jamiyat hayotini innovatsion rivojlanish yo’liga o’tkazish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va tarkibiy o’zgarishlarni amalga oshirishda oliy ta’lim tizimida mutaxassislar tayyorlash sifati muhim omil bo’lib xizmat qiladi. Turli soha tarmoqlaridagi modernizatsiyalash jarayonlarini kengayishi raqobatbardosh kadrlarga bo’lgan talabni keskin o’sishiga olib keldi. Iste’molchi ta’lim xizmatlari mazmuni va sifatini tanlar ekan, egallagan ma’lumoti, kasbiy tayyorgarligi mehnat bozorida va mehnat faoliyati jarayonida qanchalik kerakligu hamda muhimligiga e’tibor qaratadi. Iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish yo’liga o’tkazish ta’lim tizimida mavjud gorizont va vertical munosabatlarni tubdan o’zgarishiga bo’lgan zaruratni yuzaga keltirdi. Bu esa “Ta’lim tizimining barcha bosqichlarida qog’oz shaklidagi materiallarni raqamlashtirish formatlaridan foydalanishni qo’llab-quvvatlash hamda xuddi shunday yondashuvga ko’ra mavjud o’quv jarayonini raqamlashtirish doirasini muttasil kengaytirib borish” [3] ga alohida e’tibor qaratish natijasida amalga oshishi lozimligini ko’rsatdi.

Rus olimlari S.G.Grigorev va V.V.Grinshkunlarning fikricha, axborot texnologiyalaridan foydalanish muayyan turdagi ishlarni bajarishni kompyuterga o’tkazish orqali insonning intellectual imkoniyatlarini keskin oshirish va ijodiy salohiyatini faollashtirish imkonini beradi. Axborotlashtirish jarayonlarni axborot jamiyatini shakllantirishda yetakchi o’rin tutadi. Bunday jamiyatning asosini g’oyalar, aql – idrok, bilim tashkil etadi [4].

Respublikamizning tadqiqotchi pedagog olimi A.R.Aripjanova izlanishlari doirasida ta’limni axborotlashtirish sharoitida oliy ta’lim muassasalari pedagoglarining kreativ salohiyatini rivojlantirish masalalari o’rganilgan bo’lib, zamonaviy jamiyatning global axborotlashuvi ta’limining asosiy vazifalaridan biri – jamiyat axborot madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, yangi informatsion bilim va malakalarni egallashni nazarda tutuvchi shaxsiy rivojlanishning qirrası sifatida ko’rib chiqilgan.



Psixolog olimlardan E.G`oziyev o`z izlanishlarida axborot va ulardan foydalanishning insonga ta’sirini batafsil ochib bergan bo’lsa, V.Karimova ilk marotaba axborot-psixologik xavfsizlik masalalarini ijtimoiy psixologiyaning predmeti sifatida bayon etib, turli kommunikativ xurujlar sharoitida shaxsning o`zini o`zi himoya qilish sharoitlarini ilmiy – nazariy jihatdan o`rganilgan[5].

A.Abduqodirovning tahlillariga ko`ra o`quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo`llash ta’lim metodlarining samaradorligini oshirishga o`qituvchi faoliyatining ijobiy o`zgarishiga, ularning pedagogic mahoratlarini takomillashtirishga, pedagogic tizimlarning tarkibiy o`zgarishiga samarali ta’sir ko`rsatadi.

Xorij tadqiqotchi – olimi Thomas Winman raqamli jamiyat (digital society) va raqamli iqtisodiyot (digital economy) sharoitida ijtimoiy pedagogikaning roli xususida izlanishlar olib bordi. U “Jamiyat boshdan kechirayotgan texnologik inqilob turli kasblar va farovonlik subyektlariga xizmatlar ko`rsatish samaradorligini oshirish, sifatni nazorat qilishda va ma’lumot almashishni osonlashtirishda yordam berish potensialiga ega”, [6] - degan xulosaga keldi. Shuni aytish joizki, jamiyatda axborot – kommunikatsion texnologiyalarining o`ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular nafaqat bir turdagi ma’lumotlardan, balki ijtimoiy hayotga taalluqli barcha ma’lumotlarni almashishga, turli sohalarga xos yangiliklardan keng foydalanishga imkoniyat yaratadi.

Dasturiy ta’minotga oid fanlarni samarali o`qitish uchun o`quv dasturlari doimiy yangilanib borishi, o`quvchilarning ehtiyojlari va mehnat bozorining talablariga mos kelishi kerak. Zamonaviy o`quv metodikalarida masofaviy ta’lim, gamifikatsiya, laboratoriya ishlari va dasturlash bo’yicha jamoaviy loyihalarga katta e’tibor berilmoqda. Bu yondashuvlar talabalar bilimini mustahkamlash va ularga real hayotda qo`llash imkonini beradi.

Shuningdek, dasturiy ta’minotni o`qitishda tahliliy va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, muammolarni hal qilish strategiyalarini o`rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa kelajakdagi mutaxassislarining raqobatbardoshligini oshirishga, ularning dasturiy mahsulot yaratish bo’yicha kompleks yondashuvlarga ega bo`lishiga yordam beradi.

Shvetsariyalik olim Jean Piaget o`zining kognitiv rivojlanish nazariyasi asarida ta’lim jarayonidagi konstruktivistik yondashuvi dasturiy ta’minotni o`qitish jarayonida ham qo`llanilishi g`oyasi ilgari surilib, talabalar o`z bilimlarini mustaqil ravishda shakllantirishlari kerakligi va bunda amaliy tajriba muhim ahamiyatga ega ekanligi aytib o`tilgan[7].

AQSH tadqiqotchisi Seymour Papert esa o`z tadqiqotlarida o`quvchilarning o`z o`zidan o`rganishiga asoslangan konstruksionistik yondashuvni ishlab chiqqan va dasturlashni o`rganish tajriba va loyiha asosida tashkil etilishi lozim deb hisoblagan[8].

Shu jumladan o`zbek tadqiqotchilari Xamidulla Oripov o`z ilmiy ishlarida axborot texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish muhimligini ta’kidlaydi va zamonaviy ta’lim jarayonida dasturiy ta’minot va algoritmlarni o`qitish amaliy mashg`ulotlar bilan boyitilgan holda olib borilishi kerak ekanligini ta’kidlab o`tadi.

Abdumo`min Sattorov innovatsion pedagogic texnologiyalarning dasturiy ta’minot o`qitishdagi samaradorligini o`z tadqiqotlarida aytib o`tgan. Interaktiv va loyiha asosidagi ta’lim dasturiy ta’minotni o`qitishda talabalar mustaqil fikrlashi va real loyihalar ustida ishlashga tayyorlanishiga xizmat qilishini va bu yondashuv zamonaviy dasturlash ta’limini amaliy mashg`ulotlar orqali rivojlantirishga qaratilganligini aytib o`tgan[9].

Yuqoridagi ilmiy manbalar shuni ko`rsatadiki, dasturiy ta’minotni o`qitish metodikasida konstruktivistik va konstruksionistik yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari o`quv jarayonida amaliy mashg`ulotlar, loyiha asosida ta’lim va interaktiv metodlarni qo`llashning samarali ekanligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O`zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5847-sonli Farmoni / “Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi”, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son; 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O`zbekiston strategiyasi. – T.: O`zbekiston, 2021. – 464-b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O`zbekiston strategiyasi. – T.: O`zbekiston, 2021. – 464-b.
4. Григорьев С.Г., Гриншкун В.В. Информатизация образования. Фундаментальные основы: учебник для студентов педагогических вузов и слушателей системы повышения квалификации педагогов. / Москва: МГПУ, 2005. – 241 с.



5. Djuraboyev M.K. Bo’lajak o’qituvchilar pedagogic amaliyotining dasturiy – metodik ta’minotini takomillashtirish. Dissertatsiya. 2025.
6. Winman T. The Role of Social Pedagogy in a Digitalized Society. The Educational Review, USA, 4(3), 81-92.
- Piaget, Jean. The Origins of Intelligence in Children. Norton, 1973.
7. Papert, Seymour. Mindstorms: Children, Computer, and Powerful Ideas. Basic Books, 1991.
8. Oripov Xamidulla. Axborot texnologiyalari ta’limi va innovatsion yondashuvlar. Toshkent: Fan, 2018.
9. Sattorov Abdumo’min. Interaktiv o’qitish usullari va ularning dasturiy ta’minot ta’limidagi roli. Toshkent: Innovatsiya, 2020.
10. **A.M.O’rmonjonov.** (2025). INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. ZAMONAVIY FAN: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YOSH TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI, 1(1), 22-25.
11. **Ramziddin Tursunov.** (2025). IJTIMOIIY ONG VA MA’NAVIYAT TUSHUNCHASI HAMDA UNING MAZMUN-MOHIIYATI. *Kelajak o’qituvchisi - Kelajak Bunyodkori*, 1(2), 36-40.

SUVNING INSON HAYOTIDA GI O’RNI AXAMYAT

Avazova Maryamxon Baxtiyor qizi
Namangan davlat pedagoika inistituti talabasi
Email: avazovamaryamxon7@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola suvning inson hayotidagi o’rni va ahamiyati, qanday vasifalarni bajarishi, necha foizni tashkil etishi, biologik va kimyoviy jarayonlarini yuz berishi va shu bilan birga qanday vazifalarni bajarishi haqida fikr va mulohazalardan iborat.

Kalit sozlar: Suv molekulyasi, sitoplazma, qon chanqov, elektrolitlar, gipotalamusdan, biokimyoviy, qon hujayrasi, murakab ximiyaviy reaksiyalar, oksidlanish, gidroliz, yadro, suv balans.

THE ROLE AND IMPORTANCE OF WATER IN HUMAN LIFE

Avazova Maryamxon Bakhtiyor qizi
Student of Namangan State Pedagogical Institute
Email: avazovamaryamxon7@gmail.com

Abstract: This article discusses the role and importance of water in human life, the functions it performs, the percentage it constitutes in the human body, the biological and chemical processes involving water, as well as the various tasks it carries out. The paper presents insights and reflections on these topics.

Keywords: Water molecule, cytoplasm, blood plasma, electrolytes, hypothalamus, biochemical processes, blood cell, complex chemical reactions, oxidation, hydrolysis, nucleus, water balance.

ЗНАЧЕНИЕ И РОЛЬ ВОДЫ В ЖИЗНИ ЧЕЛОВЕКА

Авазова Марьямхон Бахтиёровна
Студентка Намаганского государственного педагогического института
Email: avazovamaryamxon7@gmail.com

Аннотация: В данной статье рассматривается роль и значение воды в жизни человека, какие функции она выполняет, какой процент составляет в организме, биологические и химические процессы, в которых участвует вода, а также различные задачи, которые она выполняет. Статья содержит мысли и размышления по данной теме.

Ключевые слова: Молекула воды, цитоплазма, кровь, электролиты, гипоталамус, биохимические процессы, кровяная клетка, сложные химические реакции, окисление, гидролиз, ядро, водный баланс.